

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ibroximov Maqsadjon Axmedovich- NamDPI

“Aniq fanlar” kafedrasida o'qituvchisi

Axmadjonova Sarvinoz Alisher qizi-

NamDPI “Texnologik ta'lim” yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi bolalarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda mustaqil fikrlashning nazariy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda pedagog hodimning vazifalari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik qobiliyati, mustaqil fikrlash, pedagog, ta'lim tizimi, o'quvchi.

Hozirgi kunda jamiyatda global iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, yangi texnologiyalar, ilm-fan sohasidagi yuksalishlar, shuningdek, turli ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa ta'lim tizimidan yuqori sifatli, ijodiy fikrlaydigan va mustaqil qarorlar qabul qila oladigan shaxslarni tarbiyalashni talab etadi. O'quvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish umumta'lim maktablarining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, pedagogik yondashuvlar va metodik vositalar tahlil qilinadi.

Ijodkorlik faoliyati o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va innovatsion yechimlar izlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Ijodkorlik faqatgina san'at va adabiyot sohalarida emas, balki barcha ilmiy va amaliy sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyadir. O'quvchilarning ijodiy faolligi, ular o'z fikrini erkin ifodalash, yangi g'oyalarni yaratish va o'zgaruvchan dunyoga moslashishga tayyor bo'lishlariga imkon yaratadi.

Umumta'lim maktablarida ijodkorlik faoliyatini shakllantirish uchun pedagogik muhitni ijobiy tashkil etish muhimdir. Bu muhitda o'qituvchilar o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, xatolardan qo'rquvni yo'qotishga va yangi fikrlarni izlashga undashlari kerak. Shuningdek, o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy ishlarini qadrlash va ijobiy baho berish ijodkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ijodkorlikni shakllantirishda o'qituvchining roli muhimdir. O'qituvchilar ijodiy va interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berishlari mumkin. Bu metodlar orasida munozara, loyihalash, kreativ yozuv, ko'rgazmali materiallar yordamida o'rganish, guruh ishlari va boshqa interaktiv yondashuvlar mavjud.

O'quvchilarni darsga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushinarli va qolaversa, materiallarning rang – barang bo'lishlariga bog'liqdir. Turli adabiyotlar, rasmlar, turfa tusdagi ko'rgazmali qurollar, texnologiya haqidagi qiziqarli fakt va ma'lumotlarga boy bo'lgan, boshidan oxirigacha sust bo'lmagan sur'atda tashkil qilinadigan darslar o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi. Hozirgi davr

dunyodagi g'oyaviy qarama – qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Shuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar o'quv jarayonini takomillashtirish va ijodkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kompyuterlar, internet, multimedia vositalari va o'quv dasturlari o'quvchilarga yangi bilimlarni o'rganishda ijodiy yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilarni online platformada o'z bilimlarini namoyish etishi, bloglar yaratish yoki videolar tayyorlashga undash orqali ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish mumkin

O'quvchilarni ijodkorlikka rag'batlantirishda ularning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga e'tibor qaratish zarur . O'quvchilarga o'z ijodiy faoliyatlarini namoyish etishi o'zlari yaratgan ishlarni baholash va tan olish imkoniyatlarini yaratish, ularni yangi g'oyalarga ilhomlantiradi .

Ijodkorlikni shakllantirish uchun maxsus dasturlar va loyihalar tashkil qilish kerak. Masalan ilmiy-ijodiy tanlovlar, o'quvchilar o'rtasida yaratuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar o'quvchilarning ijodiy potensialini o'sishiga yordam beradi. Bunday dasturlar o'quvchilarga o'z fikrlarini boshqalarga yetkazib berish, guruhda ishlash, fikr almashish va yangi g'oyalar yaratishga undaydi

Xulosa :

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish o'zaro bir-birini to'ldiruvchi turli shart-sharoitlarning mavjudligini taqazo etadi. Pedagogik muhi , o'qituvchining metodik yondashuvi , zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va maqsadli dasturlar ijodkorlikni rivojlantirish uchun muhim shartlardir. Ijodkorlik faoliyatini shakllantirish nafaqat o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning ilmiy va texnikaviy yuksalishiga ham katta hissa qo'shadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibroximov M.A. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Namangan: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022 yil. – 120 b.

2. Axmedovich, I. M. (2024). Xorijiy tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini ijtimoiy kompetentlik asosida rivojlantirish zaruriyatlari. Science and innovation, 3(Special Issue 41), 446-449.

3. Ibrohimov, M. (2021). Study about cognitive linguistics. Форум молодых ученых, (4 (56)), 19-23.

4. Mamatxonovich, X. F., Erkinjonovna, S. Z., Tolibjon og, G. S., & Kosimovich, U. S. (2024). Applications of mathematical models in the teaching of mathematics: perspectives for geography majors. Научный Фокус, 1(11), 449-452.

5. Ruslanovna, M. J. (2023). modern technologies for teaching students the skills of technological thinking. World Bulletin of Social Sciences, 20, 1-3.

6. Ibroximov, M. A. (2023). professional ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim va amaliyot integratsiyasi. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 175-179.

7. Murtozayeva M.M. Ta'lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirishda innovatsion usullar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. – 160 b.

9. Ibrohimov, M. (2021). Study about cognitive linguistics. Форум молодых ученых, (4 (56)), 19-23.